

**FRANSUZ NUTQIY ETIKETIDA PRAGMATIKA VA INTONATSIYA****Dehqonov Islom Teshaeovich***Farg'ona davlat universitetinemis VA fransuz tillari kafedrasi o'qituvchisi***A R T I C L E I N F O.****Annotatsiya****Kalit so'zlar:**

Pragmatika, nutqiy etiket, salomlashish va xayrashish, nutqiy harakatlar, nutqiy etiket formulalar, lokatsiya va perllokatsiya, intonatsion tashkil etilish, intonatsion parametrler, pragmatik koordinat, nutqiy etiket intonatsiyasi.

Mazkur maqola pragmatika va tilshunoslik o'rghanish ob'ektlaridan biri sifatida nutqiy etiket maqomini belgilaydi, pragmatik nazariya doirasida salomlashish va xayrashish nutqiy harakatlarida qo'llaniladigan nutqiy etiket formulalarini intonatsion tashkil etilishining turli xilligini tahlil qiladi. Maqolada fransuz salomlashuv, xayrashuv tabiatini va intonatsion parametrlari o'rtasidagi bog'liqlikni, shuningdek, salomlashish va xayrashish nutq harakatlarida lokatsiya va perllokatsiya intonatsion tashkil etilish qoidalarini ochib beriladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Intonatsiyaning an'anaviy vazifalaridan tashqari, nutq sohasi bilan bog'liq yana bir funksiyasi - turli kommunikativ vaziyatlarda, ayniqsa intonatsiyada yoqimli ohang bilan aloqa o'rnatadigan fatik funksiyasi haqida gapirish mumkin. [9, b. 58]. Fatik funktsiyani amalga oshirish nutqiy etiket formul darajasida nutqiy harakatning pragmatik koordinatini ta'minlaydi.

Frantsuz tilining nutqiy etiket intonatsiyasining fonetik-eksperimental tadqiqi amaliy fonetikada qabul qilingan kompleks metodologiyaga muvofiq ravishda amalga oshirildi va ikkita asosiy - eshitish va elektro-akustik qismidan iborat edi.

Bizning fransuz tili materiali asosida olib brogan fonetik tadqiqotimiz nutqiy etiket formulalarida intonatsiya vositalarini bajalrilishida ba'zi bir o'ziga xoslik qonunlarni aniqlash imkonini berdi.

Turli pragmatik vazifani hal qilish-nutq harakatini o'rnatish va yakunlashga yo'naltirilgan itonatsiyaning o'zlashtirilgan sifati (turli niyat bilan tavsiflangan) va nutqiy etiket formulalarini ularga tegishli akustik belgilari aniqlandi.

Tadqiqot uchun quyidagi nisbatan neytral nutqiy etiket formulalari tanlab olindi:

“bonjour”, “bonjour + murojaat”, “au revoir”, “au revoir + murojaat” ular salomlashish va xayrashish nutqiy harakatlarida eng ko'p ishlatilib, muloqotni muloyim ohangda boshlash va yakunlashni standartlashgan ifodada ishlatishni talab qiladi. Eshitish tahlili davomida quyidagi natijalar olindi.

“Bonjour” nutqiy etiketi baland-past, past, teng-past, teng-baland ohangda; silliq – past ,silliq-balad, ba'zan teng yakunlanadigan; ko'p hollarda sekin, kamroq o'rtacha sur'atda, yuqori va o'rtacha hajmda, yuqori va o'rta talaffuz darajasida, o'rta, kengaytirilgan, ba'zan keng melodik diapazonda tavsiflanadi.

“Bonjour + murojaat” nutqiy etiket formulalari, odatda, baland-past, yoki pasayib boruvchi, silliq-past

yoki teng tugallanadigan, sekin, o'rtta, ba'zan tez ohangda talaffuz qilinishi bilan tavsiflanadi. Berilgan ifodaning birinchi qismi (bonjour), ifodaning ikkinchi qismi (murojaat) ga qaraganda balandroq ovozda va yuqoriroq darajada amalgam oshiriladi. Murojaat qilishdan oldin odatda pauzalar bo'lmaydi.

"Au revoir" nutqiy etiket formulalari ko'tarilish, pasayish, baland-past melodiyada, silliq-ko'tariluvchi, silliq-pasayuvchi yakunlash bilan tavsiflanadi. Shubhasiz, xayrlashuvlar salomlashishga qaraganda intonatsiya shaklining kamroq o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadi.

"Au revoir + murojaat" nutqiy etiket formulalari ko'tariluvchi- tushuvchi melodiya bilan tavsiflanadi. Berilgan ifoda tarkibidagi murojaat silliq-pasayuvchi yoki teng yakunlovchi ohangga ega.

Kechirim so'rash formulalari ko'p hollarda o'rtacha yoki tezlashtirilgan ohangdagi talaffuz bilan; o'rtacha, ba'zan yuqori hajmli ovoz; o'rtta yoki kengaytirilgan melodik diapazon; o'rtta, kamroq yuqori talaffuz darajasi; odatda, murojaatdan oldin pauzalar qilinmasligi bilan tavsiflanadi. "Au revoir" so'zining oxirgi bo'g'ini, odatda maksimal davomiylig , ba'zan esa ko'tarilgan ohangi bilan ajralib turadi.

Bir xil leksiko-gramatik tuzilishga ega intonasjon gaplarni xususiyatlarini taqqoslash, salomlashish va xayrlashuv nutqiy aktlarida, dialogik birlikda shuni ko'rsatdiki, perlokatsiya (luqma reaksiya) lokutsiya(luqma-stimul)dan farqli o'laroq torroq melodik diapazon, yuqori darajali ohangda amalga oshirish, talaffuzning tezlashtirilgan ohangi bilan tavsiflanadi. Melodik shakl va ovoz darajalari tabiatida, luqma-stimul va luqma-reaksiya o'rtasida qandaydir barqaror farqlar aniqlanmadni.

Salomlashish va xayrlashish qarama-qarshi nutqiy harakatlarda qo'llanilgan intonatsion formulalarni taqqoslash, ayrim qoidalarni ochib berdi. Aloqa o'rnatish uchun ishlatilgan salomlashuv, odatda, aloqani yakunlash maqsadida ishlatilgan xayrlashuvga qaraganda, kengroq melodik diapazon, sekinroq sur'at, yuqori talaffuz darajasi bilan tavsiflanadi. Salomlashish va xayrlashish nutqiy aktlarida dialogik birliklarni (lokatsiya va perlokatsiya) eshitish tahlili paytida luqma-stimul va luqma-reaksiya o'rtasida pauza yo'qligi yoki qisqaligi aniqlandi. Bu fakt shuni ko'rsatdiki, nutqiy etiket darajasida xushmuomalalik qoidalariiga rioya qilish salomlashuv va xayrlashuvda tezkor reaksiya va tez javob berishni talab qiladi, pauzaning kuchayishi, shuningdek, melodiya yo'naliishing o'zgarishi, muloyim ohangi buzishi, qo'shimcha ma'no keltirib chiqarishi mumkin.

Tadqiqotimizda o'tkazilgan elektroakustik tahlil nutqiy etiket formulalarini fonetik tashkil etishda nafaqat asosiy ohang chastotasi (AOCH) parametri kattaligi, balki kuch va vaqtida ham o'zgaruvchanligini ko'rsatadi. Intonatsion tashkil etilgan nutqiy etiket formulalarining asosiy komponent akustik daraja AOCH i bilan o'zaro bog'liq ohang (melodiya) hisoblanadi. Bir so'dan tashkil topgan nutqiy etiket formulalari butunlay har xil melodik ahamiyati va qisman tugallanish tabiatini bilan tavsiflanadi. "Bonjour", "au revoir" iboralari AOCH ing baland-past va past harakatlanishiga ega bo'lishi mumkin.

Balandlovchi melodik shaklga ega bo'lgan "bonjour", "au revoir" iboralari, tanish bo'lgan shaxslar, xattoki notanish shaxslar bilan ham rasmiy darajada muloqotga (masalan, restoranda, ziyofatda) kirishganda tovush pasayishiga ishora beradi. Ba'zi hollarda AOCH harakatining yuqori tovush konfiguratsiyasi suhabatdoshlarning iliq psixo-emotsional holatini yuzaga keltiradi. Suhbatni tugatish xarakteridagi balandlab boruvchi tovush ham iliqlikni yuzaga keltirishi mumkin: masalan, qachonki xayrlashuv formulasi alohida ishlatilmasa, undan so'ng tilak aytildi.

Pasaytirilayotgan melodik shakl ko'pqor rasmiy muloqotda ish yuzasidan notanish shaxs va suhabatdoshlar o'rtasida amalga oshiriladi. Qarama-qarshi ko'rinishdagi salomlashuv va xayrlashuv nutqiy aktlarida ishlatilgan nutqiy etiket shakllarini qiyoslash jarayonida xayrlashuga qaraganda, salomlashuv odatda, unch katta bo'lмаган tovush chastota diapazoni bilan tavsiflangani aniqlandi. Bu yana bir bor muloqotning dastlabki bosqichini muhimligini, uning keyingi muloqotga ta'siri borligidan guvohlik beradi.

Dialogik birlik(lokatsiya va perlokatsiya)larda salomlashuv va xayrashuv chatota (tezlik) xarakteri solishtirilganda javov luqma (salom-reaksiya, xayr-reaksiya) lari, luqma-stimulga qaraganda yuqori chastota darajasida amalga oshirilishi aniqlandi. Dialogik birliklar ichida o'zaro harakatlanuvchi salomlashish va xayrashish shakllarining energetik tahlil qilish, bir qator hollarda perlokatsiya(salomlashish-reaksiya, xayrashish-reaksiya)lar intensivligi lokatsiya(salomlashish stimuli, xayrashuv stimuli)lar intensivligidan ko'ra katta ahamiyatliligi bilan tavsiflanishini ko'rsatdi. Mazkur nutqiy harakatlardagi javob luqmalari intensivligini ortishi, bizningcha, salomlashuv va xayrashuvga javob beruvchi suhbatdosh, javobini o'z suhbatdoshiga eshitarli bo'lishi, hamda bu bilan u suhbatdoshining salomini yoki xayrashuvini qabul qilishini va o'zaro javob berishini ko'rsatdi. Nutq aloqasini yakunlovchi xayrashuv formulalari aloqa o'rnatishga xizmat qiladigan salomlashish formulalariga qaraganda o'rta bo'g'in va o'rta tovush davomiyligining biroz pastroq darajalari va talaffuz tempining tezlashishi bilan tavsiflanadi.

Talaffuz tempining davomiyligini ortishi va sekinlashishi nutqiy etiket shakllarida aniq berilgan ijtimoiy ma'lumotlar darajasi bilan ham bog'liq. Shunday qilib, masalan, salomlashuvni sekin tempda talaffuz qilish o'rnatilayotgan aloqaning birinchi daqidasini muhimligi bilan bog'liq. Shunday qilib, tadqiqotning perceptiv va akustik darajalari tahlil davomida olingan ma'lumotlar, shuningdek, ularning keyingi korrelyatsiyasi bizning taxminimizni salomlashish va xayrashish intonatsionsini tashkil etilishi turli darajalar; melodik, dinamik va vaqtinchalik talaffuz komponentlarining turli darajadagi faolligi hamda ularni yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi.

Olingen ma'lumotlarga ko'ra, fatik funksiya katta darajada salomlashish shakllari orqali amalga oshiriladi. Aloqa o'rnatish uchun muloqotning dastlabki bosqichida ishlatalidigan salomlashish shakllari yanada yorqin intonatsiya(melodik diapazonni kengayishi, tezlikni ortishi, talaffuz sur'atini sekinlashishi)ga ega, va albatta, aloqani tugatish uchun ishlatalidigan xayrashuv shakllari (melodik diapazonning torayishi, intensivlikni pasayishi va ohangni tezlashishi)ga qaraganda katta darajada illokutiv kuchni amalgam oshiradi. Umumi intonatsion parametrlar, bizning fikrimizcha, maksimal darajada amalga oshirilgan illokutiv kuchlar, ya'ni so'zlovchining aloqa nutqni o'rnatish yoki yakunlash niyati, keyin uni qayta tiklash imkoniyati bilan o'rtacha, kengaytirilgan va ba'zan keng melodik diapazonli, silliq, nutqni yakunlash xarakteridagi teng melodik shaklga, nutq ohangini o'rta va sekin sur'atga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, olingen ma'lumotlarga ko'ra, lokativ va perlokativ nutq harakatlari turli darajada ifodalangan intonatsion belgilarga ega. Intonatsiya til tizimining muhim elementlaridan biri sifatida, salomlashish va xayrashish nutqiy harakatlarda amalga oshiriladigan aniq pragmatik potentsial(kuch), illokutiv kuchlar) bilan tavsiflanadi.

### **Adabiyotlar:**

1. Armengaud, F. (2007), *La pragmatique*, Paris, PUF (5<sup>e</sup> éd.)
2. Blanchet, Ph. (1995), *La Pragmatique*, Paris, Bertrand Lacoste, Coll. "Référence".
3. Dehqonov IslomTeshaeovich. (2022). Scientific-Theoretical Bases and Principles of Speech Etiquette Units in World Linguistics ("Etiquette De La Parole"). International Journal of Culture and Modernity, 14, 39-42.
4. Abdullaev, Ziyodbek (2021) Usbekische Personennamen - Etymologie, Grammatik, Pragmatik. PhD, Universität Regensburg.
5. Iskandarova, Sh., & Abdullayev, Z. (2018). Formation of personal names in languages of different systems. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(1), 58-60.
6. Askarova, S. I. (2019). Bilingualism And Polylingualism: Aspect Of Linguistics Combining Different Sociocultural Communities. *International Journal Of Student Research*, (3), 76-79.
7. Ismailovna, A. S. (2021). Phonetic Interference Of Vowel Phonemes In Uzbek-Russian And Uzbek-German Bilingualism. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 831-836.

8. Askarova, S. (2020). German Borrowings At The Level Of Vocabulary In The Conditions Of Uzbek-German And Uzbek-Russian Bilingualism (In Conditions Covid-19). *European Journal Of Molecular And Clinical Medicine*, 2943-2953.
9. Askarova, S. 2. Überblick Zur Tätigkeit Von Josef Haslinger. In *Conference Paper “Modern Approaches And Methods Of Teacher Training” For German Language Teachers* (P. 3).
10. Аскарова, Ш. И. Роль Первого Языка В Усвоении Детьми–Билингвами Системы Множественного Числа Имён Существительных Немецкого Языка.
11. Аскарова, Ш. И. (2017). Использование Интерактивных Методов Преподавания На Занятиях Иностранных Языка. *Актуальные Научные Исследования В Современном Мире*, (5-2), 29-32.
12. Аскарова, Ш. И. (2022). К Вопросу Грамматической Интерференции При Узбекско-Русском И Узбекско-Немецком Билингвизме. *Архив Научных Исследований*, 2(1).
13. Asqarova, S. I. (2020). Terminology Of The Direction Of Language Contacts In Modern Linguistics. *Scientific Bulletin Of Namangan State University*, 2(11), 234-239.
14. Mamadodilovna, M. N. (2021, November). Strategies For The Development Of Oral Speech In German. In *Archive Of Conferences* (Vol. 22, No. 1, Pp. 93-95).
15. Mamadodilovna, M. N. (2022). Einsatz Der Kommunikationsstrategien Für Die Förderung Des Sprechens Im Daf-Unterricht. *Berlin Studies Transnational Journal Of Science And Humanities*, 2(1.5 Pedagogical Sciences).
16. Мерганова, Н., & Кодиров, Ш. (2017). Использование Песен На Уроках Иностранных Языка. *Актуальные Научные Исследования В Современном Мире*, (5-2), 61-64.
17. Mamadodilovna, M. N. (2021, November). Strategies For The Development Of Oral Speech In German. In *Archive Of Conferences* (Vol. 22, No. 1, Pp. 93-95).
18. Mamadodilovna, M. N. (2022). Einsatz Der Kommunikationsstrategien Für Die Förderung Des Sprechens Im Daf-Unterricht. *Berlin Studies Transnational Journal Of Science And Humanities*, 2(1.5 Pedagogical Sciences).
19. Mukhtorovna, Y. S. (2021). Regularly Used Phrasal Verbs German Language. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 673-680.
- Inter, F. L. I. (2017). An International Multidisciplinary Research Journal. *An International Multidisciplinary Research Journal*, 41(43).
20. Yusufjonova, S. (2020). Comparative Analysis Of Phrases In Uzbek And German. *Theoretical & Applied Science*, (2), 590-592.
21. Yusufjonova, S. (2021). Certain Linguistic Peculiarities Of Phraseological Units. *Scientific Bulletin Of Namangan State University*, 2(2), 289-293.
22. Mukhtorovna, Y. S. (2022). Historical Development Of Translation Of Phraseologicalunits. *International Journal Of Culture And Modernity*, 14, 20-29.
23. Teshaevich, D. I. (2022). Scientific-Theoretical Bases And Principles Of Speech Etiquette Units In World Linguistics (“Etiquette De La Parole”). *International Journal Of Culture And Modernity*, 14, 39-42.
24. Raxmonalievna, A. G. (2022). Lexical Units Related To The Education System In A Comparative Study Of Different Languages. *Spanish Journal Of Society And Sustainability*, 6, 1-6.
25. Абкаримова, М. Б. (2021). Шахсиз Гапларнинг Функцияси Ва Уларнинг Ўзбек Тилидаги Таржимаси. *Scientific Progress*, 2(2), 1509-1513.